Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari .....	1213
<b>Djumayev Zayniddin Ahmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li</b>	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari .....	1219
<b>Tursunov Nozimjon Nosirovich</b>	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
<b>Saida Yuldasheva</b>	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan .....	1227
<b>Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li</b>	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rni .....	1231
<b>Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna</b>	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
<b>Normurzayev Umid Xolmurzayevich</b>	
Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
<b>Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna</b>	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан .....	1250
<b>Эркинов Шахзод Баходир угли</b>	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budget daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
<b>Ikramov Ravshan Amanbayevich</b>	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish .....	1261
<b>Azadova Bonuposhsha Alisher qizi</b>	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1266
<b>Sadikov Iskandar Gayratovich</b>	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	1272
<b>Rajapov Shuxrat Zaripbaevich</b>	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.....	1277
<b>Qorriyeva Shahnoza Safarboyevna</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	1281
<b>Jumayeva Gulruk Jo'raqulovna</b>	
Xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati .....	1284
<b>Mirzayev Qulmamat Janzakovich, Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich</b>	
Yog'-moy korxonalarining xom ashyo ta'minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari .....	1289
<b>Jo'rayeva Nodiraxon Qurbonovna</b>	
O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakkllantirishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari .....	1294
<b>Berkinov Bazarbay Berkinovich</b>	
O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollarini ta'minlash omillari.....	1300
<b>X. I. Boyev</b>	



# O'ZBEKISTONDA MULKDORLAR SINFINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK YO'NALISHLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Berkinov Bazarbay Berkinovich**

TDIU professori, Institutsiyonal va iqtisodiy tadqiqotlar markazi direktori,  
Nyu-York Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zosi hamda  
Xalqaro axborotlashtirish akademiyasi akademigi

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda mulkdorlar sinfining mazmun-mohiyati ochib berilgan va uning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, mulkdorlar haq-huquqlarini himoya qilish mexanizmlari asoslangan. Maqolada, shuningdek, haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirishning yo'nalishlari hamda uning qonunchilik asoslarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** mulkdorlar sinfi, o'rta sinf, samarali mulkdor, haqiqiy mulkdor, xususiylashtirish, agrar sektor, xususiy tadbirkorlik.

**Abstract:** The article reveals the essence and content of the class of owners in Uzbekistan, substantiates the main factors influencing their formation and mechanisms for protecting the rights and interests of owners. The article also develops proposals for improving the directions for forming a class of real owners and their legislative framework.

**Key words:** owner class, middle class, effective owner, privatization, agricultural sector, private business.

**Аннотация:** В статье раскрыты сущности и содержание класса собственников в Узбекистане, обоснованы основные факторы влияющие на их формирование и механизмы защиты прав и интересов собственников. В статье также разработаны предложения по совершенствованию направлений формирования класса реальных собственников и их законодательных основ.

**Ключевые слова:** класс собственников, средний класс, эффективный собственник, приватизация, аграрный сектор, частный бизнес.

## KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy vazifalaridan biri mulkdorlar sinfini shakllantirishdir. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida "Yangi O'zbekiston – keng iqtisodiy imkoniyatlar mamlakatidir. Iqtisodiy siyosatimizning asosiy tamoyillaridan biri – har bir fuqaro boy bo'lса – davlat boy bo'ladi, har bir oila farovon bo'lса – mamlakat farovon bo'ladi" deb ta'kidlagan [1]. Bu yo'lda uchta o'zarobog'liq vazifani hal etish to'g'risida gapirish mumkin: bular iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy masalalar. Iqtisodiy ma'noda o'ziga tegishli mulkdan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanishga qodir bo'lgan kishilar mulkdorlar bo'lishi mumkin. Samarali mulkdor o'ziga tegishli mulkn bozor mexanizmlaridan foydalangan holda oshirib boradi. Ijtimoiy ma'noda, mamlakat aholisining katta qismini o'z ichiga olgan va uning rivojlanishi yo'nalishlarini aniqlovchi jamiyat asosini tashkil etuvchi o'rta sinf shakllanishi lozim. Mulkdorlar sinfining siyosiy ma'nosi shundan iboratki, u barqarorlikka, demokratianyaning rivojlanishiga va huquqiy davlatga yo'naltirilganlidir. Mulk egalari hamma vaqt har qanday inqilobiy o'zgarishlar va ijtimoiy larzalarga qarshi turadi, chunki jamoat tartibsizligi ularning mulkiga tahdid solib turadi.

Shuni nazarda tutish lozimki, ushbu belgilarga barcha mulkdorlar ham javob bermaydi. Faqatgina mulkka egalik qilish yetarli emas. Hatto eng kambag'al inson ham qandaydir mulkka ega. Lekin bunday mulkdorlarning jamiyattdagi roli yuqorida aytilganlarinikidan keskin farq qiladi. Shuning uchun mulkdorlar sinfini shakllantirish iqtisodiy islohotlar vazifalarini hal etish uchun zarurmi? – degan savol qo'yilishi tabiiy. Bu savolga javob iqtisodiy islohotlarning maqsadlaridan kelib chiqadi.

Aholi turmush darajasini oshirish bosh maqsadlardan biri hisoblanadi. Ya'ni mamlakat fuqarosi qanchalik boy va moddiy jihatdan ta'minlangan bo'lса, bu jamiyat farovonligi uchun shunchalik yaxshidir. Davlat o'z oldiga,



hatto fuqarolar daromadlari nuqtayi nazaridan tenglikka erishish vazifasini qo'ymasligi kerak. Bunday siyosatning salbiy oqibatlari hamma vaqt barcha mamlakatlarda kuzatilgan. U faqat qashshoqlik bilan kurashishi va uni keltirib chiqaruvchi sharoitlarga barham berishi mumkin. Moddiy farovonlik davlat faoliyatining mahsuli bo'lmasisligi lozim, unga har bir fuqaro, har bir oila mustaqil erishishi kerak. Bu shuni anglatadiki, davlat boy shaxslarni kambag'allarga yaqinlashtirish maqsadida ularning daromadlarini chegaralamasligi zarur. Davlat aholini kam ta'minlangan qatlaming daromadlarini oshirishga yordam berishi lozim.

Agarda kam ta'minlanganlar soni ko'pchilikni tashkil etmasa, u holda jamiyatning katta qismi o'rta sinf, ya'ni davlat asosini tashkil etuvchi ijtimoiy qatlamdan iborat bo'ladi. Bundan kelib chiqadigan birinchi xulosa shuki, O'zbekiston o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirishga va rivojlantirishga intilishi lozim. Bu vazifani hal etish kambag'allikka barham berish va har bir shaxsnинг mehnat salohiyatini ochish bilan bog'liqdir.

Mulkchilik to'g'risidagi masalani hal etishning iqtisodiy jihat shundan iboratki, mulkdorlar, birinchidan, haqiqiy, ikkinchidan esa, samarali bo'lishi darkor. Korxonaning barcha xodimlarini rasman aksiyador qilish mumkin, lekin, agar bu xodimlar haqiqatda korxonani boshqarishda ishtiroy eta olishmasa, o'z aksiyalariga devidendlarni olishmasa va hatto ularni korxonadan tashqarida sota olishmasa, u holda ularning mulkdorlik huquqlari haqqoniyligi to'g'risida gapirishga hojat bo'lmaydi. Shuni anglagan holda aholi erkin bozorda aksiyalarni sotib olmaydi. Agar korxona bilan doimiy bog'liq bo'lgan kishilar uning ishiga ta'sir ko'rsata olmasalar va ular qonuniy ravishda olishi lozim bo'lgan daromadni olmasalar, korxonadan chetda bo'lgan kishilar, ayniqsa, kichik sarmoyadorlar haqida nima deyish mumkin. Bundan ikkinchi xulosa kelib chiqadi: mulkdorlar huquqlarini amalga oshirish va muhofaza qilishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqarish lozim. Usiz mulkka egalik qilish rasman bo'lib, mulk hech kimniki bo'lmaydi. Bu holat hozirgi paytda mulkka haqqoni ega bo'lib turgan shaxsnинг qonuniy yo'l bilan boyib ketishiga keng imkoniyat ochib beradi va jamiyat uchun bu juda xavflidir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Muldorlar sinfini shakllantirish va rivojlantirish muammolariga mamlakatimiz olimlaridan Sh.M.Mirziyoyev<sup>[1]</sup>, Q.X.Abduraxmanov<sup>[3]</sup>, T.M.Axmedov<sup>[4]</sup>, N.S.Aliqoriyev<sup>[5]</sup>, Sh.Yu.Mahkamova<sup>[6, 7]</sup> va boshqalarning ilmiy ishlari bag'ishlangan. Chet el tadqiqotchilari<sup>[8]</sup> ham ushbu muammoni yechimiga o'z hissalarini qo'shmaqda. Shu bilan bir qatorda mulkdorlar haq-huquqlarini himoya qilish, o'rta mulkdorlar sinfi qatlamini shakllantirish, ular rivojlanishi mexanizmlari va qonunchilik jihatlarini takomillashtirish masalalari va muammolari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologiyasini mamlakatda haqiqiy va samarali o'rta sinfga mansub bo'lgan mulkdorlarni shakllantirish tamoillari hamda uslubiyati tashkil etadi. Tadqiqotda mulkdorlar sinfini shakllantirishning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy mezonlari asoslanadi. O'rta sinfni shakllantirishga asosiy talablar va omillar umumiashtiriladi, ular yo'nalishlari taklif qilinadi. mulkdorlar sinfi rivojlanishiga to'siq bo'layotgan omillar tahlil qilinadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Muldor tabiatan oqilona ish tutadi. U o'ziga tegishli mulkni ko'paytirishga intiladi. Agar bu holat yuz bermasa, mulk egasi o'zini mulkdor deb hisoblamaydi, yoki kelajakda uning huquqlari saqlanmasligi mumkin, deb hisoblaydi, yo bo'limasa mulk yangi egasiga shunday sharoitda kelib tushganki, u mulkni avaylab-asrab va uni ko'paytirish lozim emas deb hisoblaydi. Shu asosda uchinchi xulosaga kelish mumkin: mulkchilik huquqlari nafaqat qonun bilan himoyalanishi, balki haqiqatda kafolatlanishi zarur. To'rtinchi xulosa shuki, mulkdorlar o'ziga tegishli boyliklarni qayta ishlashni kengaytirishga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga va shu asosda yangi moddiy va nomoddiy boyliklarni yaratishga yo'naltirilgan mulkdorlar rag'batlantirilishi lozim. Yuqorida aytiganchalarni umumiashtirib shuni aytish mumkinki, iqtisodiy islohotlar natijasida o'z mulkidan oqilona foydalanishga va uning bozor munosabatlarini rivojlantirishga hamda huquqiy davlat va demokratik jamiyat tuzishga yo'naltirilgan ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida ko'paytirishga qodir bo'lgan o'rta mulkdorlar sinfi shakllanishi lozim.

Unday mulkdorlar sinfi shakllanishining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- mavjud mulklar va daromadlar asosida, xususan omonatlarni korxonalar va davlat qimmatli qog'ozlariga sarflash hamda xususiy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk va boshqa mulklardan foydalanish yo'li;
- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish asosida, davlat mulkini kimoshdi savdolari va tanlovlarda sotib olish, hamda xususiy lashtirilgan korxonalar aksiyalarini xarid qilish yo'li;
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish.



Ushbu yo'nalishlarda kafolat nafaqat mulkchilik subyektlari, balki uning obyektlari uchun ham juda muhim, ya'ni mulkdorlar qanday mulkka egalik qilishlari mumkin. Shu bilan birga, mulkchilikning barcha obyektlari daromadlar olish maqsadida foydalanmaydigan obyektlarga hamda ishlab chiqarish resurslariga bo'linishi mumkin. Bunda ishlab chiqarish resurslari esa, o'z navbatida, quyidagilarga bo'linadi:

1. Mehnat.
2. Yer.
3. Kapital:
  - a) Moddiy aktivlar;
  - b) moliyaviy aktivlar.
4. Pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar;
5. Nomoddiy aktivlar – intellektual mulkchilik obyektlari.
6. Fuqarolarning tadbirkorlik qobiliyati.

Ishlab chiqarish resurslari daromad olish va mulkni ko'paytirish uchun foydalaniadi. Har qanday mulkka ega bo'lgan shaxslarning barchasi mulkdorlar hisoblanadi.

Mulkdorlar – bu moddiy va intellektual mulk obyektlariga egalik qiluvchi, ulardan o'z xohishiga, shu jumladan, daromad olish maqsadida foydalanish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslardir.

Mulkdorlarni uch guruhgaga bo'lish mumkin:

- o'z ixtiyorida daromad keltirmaydigan va shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallanmagan mulkka ega bo'lgan mayda mulkdorlar;
- o'z ixtiyorida iste'mol sohasida foydalaniladigan mulk bilan bir qatorda qo'shimcha tadbirkorlik daromadi yoki sarflangan kapitaldan daromad olishga mo'ljallangan aktivlar (kapital)ga ega bo'lgan shaxslar;
- o'z ixtiyorida yirik xususiy korxonalar, firmalarga ega bo'lgan va ular faoliyatidan mo'may daromad oluvchi yirik mulkdorlar.

Mulkdorlar sinfini shakllantirish yo'nalishlari va uning tarkibini aniqlagan holda ushbu jarayonni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash mumkin. Bu omillar ichida kishilar psixologiyasi muhim rol o'ynaydi. Insonni mulkdor bo'lishi uchun majburlab bo'lmaydi, u bunga tayyor bo'lishi kerak. Sobiq ittifoq davrida kishilarga uzoq vaqt xususiy mulkka ishonchhsizlik g'oyasi singdirilgan, uning egalariga "chayqovchi" sifatida qaralgan. Hozir bozor munosabatlari rivojlanish pallasi, xususiy mulkka nisbatan ham ushbu jarayonlar ijobji tomoniga o'zgardi.

Mulkdorlar sinfining shakllanishiga huquqiy muhit kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Qonunchilik mulkchilik huquqlarini muhofaza qilish, kafolatlanishi va ularni amalga oshirish mexanizmini belgilab berishi zarur. Agar mulkdorlar huquqlarini himoyalash mexanizmi bo'lmasa, u holda bu huquqlar deklaratsiyaga aylanadi. Bu hol qonunga bo'lgan ishonchni yo'qotadi va muammolarni "horasmiy" yo'l bilan yechishning turli usullarini qidirish uchun zamin yaratadi.

Mulkdorlar sinfining shakllanishiga iqtisodiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Xususan, infratuzilmaning rivojlanishi – ishlab chiqarish, ijtimoiy, moliyaviy bozorlar tarkibi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

Real mulkdorlar sinfining shakllanishida davlat siyosati muhim ahamiyatga ega: ya'ni soliq siyosati xo'jalik yurituvchi subyektlar ixtiyoridagi daromad hajmini va uning taqsimlanishini belgilab beradi. Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish sohasidagi siyosat davlat mulkini u yoki bu usul bilan iqtisodiy faoliyatning nodavlat ishtiokchilariga o'tkazishga yo'naltirilgan; aholining kam ta'minlangan qatlamini qo'llab-quvvatlash hamda fan, madaniyat, ta'lim, millatning intellektual kapitalini oshiruvchi faoliyat sohalarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy siyosat; iqtisodiy siyosat xo'jalik faoliyatini tartibga solish, resurslarni taqsimlash va makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga yo'naltirilgan.

Mulkdorlar sinfi oyoqqa turishining dastlabki bosqichi O'zbekistonda institutsional va iqtisodiy islohotlar jarayonlarida mulkdorlar sinfini shakllantirish uchun zamin yaratildi. Bu haqda iqtisodiy islohotlarning borishini tavsiflovchi ayrim ko'rsatkichlar dalolat beradi.

Mamlakatimizda 1992–1998-yillarda 50630 ga yaqin davlat korxonalari xususiylashtirildi va qayta tashkil etildi. Mahalliy, yengil, mebel, mashinasozlik va avtomobil sanoati tarmoqlaridagi davlat korxonalari mulkchilikning nodavlat shakliga o'zgartirildi. Shu davrda 85 mingga yaqin kichik, 45 mingdan ortiq xususiy korxonalar tashkil etildi. Davlat fondi uy-joylari to'liq xususiylashtirildi. Natijada 1,1 mln. kvartira o'zining haqiqiy egasini topdi. 3 million oila esa tomorqalar va yordamchi xo'jaliklarga ega bo'ldi.



Agrar sektordagi iqtisodiy islohotlar mulkdorlar sinfining shakllanishiga asos yaratgan. Dastlab kolxoz va sovxozi aksiyadorlik jamiyatlariga, kooperativlarga, shirkat xo'jaliklariga aylantirilgan. Yangi o'zgargan iqtisodiy sharoitlarda mulkchilik munosabat mulk payi asosida qurilgan, unda xo'jalikning har bir ishchisi xo'jalik mulkining aniq bir qismiga egalik qilgan. Oilaviy pudrat va fermerlik harakatlari rivojlangan. O'sha bosqichda 23 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari barpo etilgan, ularga 423,5 ming hektar yer berilgan, dehqon xo'jaliklari uchun esa 625,8 ming hektar yer ajratilgan. 1998 yil 1 iyun holatiga ko'ra, 22 mingga yaqin yer uchastkalari kimoshdi savdosi asosida sotilgan, shuning 37,7 foizini dehqon xo'jaligi yuritish uchun ajratilgan yer uchastkali, 62,3 foizini esa shaxsiy uy-joylar qurilishiga berilgan uchastkalar tashkil etgan.

Bozorning ko'chmas mulk sektorida Respublika ko'chmas mulk birjasi muhim rol o'yagan. Tadbirkorlar ko'chmas mulk birjasida turli ishlab chiqarish vositalarini, jumladan, qishloq xo'jaligi vazirligining 3800 dan ortiq obyektlarini, O'zmevasabzavotvinosanoatining 357 ta obyektlarini, 1746 ta savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarini, 451 ta avtomobilgara yoqilg'i quyish shaxobchalarini va 5700 dona avtotransportlarni sotib olgan.

Qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi mulkdorlar sinfining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Xususiy lashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida 1998-yil 1-iyul holatiga ko'ra emissiyalar umumiyo hajmi 186,6 mlrd. so'm bo'lgan 4989 ta aksiyadorlik jamiyatlari ro'yxatga olingan. Aksiyadorlik jamiyatlarining 29,4 mlrd. so'm miqdoridagi aksiyalari joylashtirilgan, shulardan 14 mlrd. so'm miqdoridagi aksiyalari jamoa a'zolari o'rtaida joylashtirilgan, 8 mlrd. so'm miqdoridagi aksiyalar Respublika fond birjasida yuridik va jismoniy shaxslarga sotilgan. "Vaqt" milliy depozitariysida jismoniy shaxs uchun 825 mingdan ortiq hisob raqamlar ochilgan.

1998-yil 1-iyun holatiga ko'ra O'zbekistonda 83 ta XIF hamda 84 ta boshqaruvi kompaniyalari ro'yxatga olingan va qonunda belgilangan tartibda litsenziyalar berilgan. 72,2 ming kishi XIFlar aksiyadorlari hisoblangan.

Mulkdorlar sinfining shakllanishiga bozor infratuzilmalarining rivojlanishi ham katta yordam bermoqda. Bozor infratuzilmasi tadbirkorlar faoliyati sharoitlarini yaxshilamoqda. O'sha davrda 1800 dan ortiq mayda ulgurji tuzilmalar barpo etilgan, qimmatli qog'ozlar bozorida 300 ta brokerlik idoralari faoliyat ko'satgan. 1998-yil 1-iyul holatiga ko'ra qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yuritish uchun litsenziya olgan investitsiya institutlari 657 tani tashkil etgan.

Mulkdorlar sinfini shakllantirishning huquqiy asoslari rivojlanmoqda. Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, fond bozorini rivojlantirish, agrar sektordagi islohotlarni chuqurlash, kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularni qo'llab-quvvatlash sohalarida qator qonunlar va qonun osti hujjatlari qabul qilingan va amaliyotga kiritilgan.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari yo'naltirilgan. Oliy Majlis sessiyasida "Uy-joy kodeksi" birinchi o'rinda qabul qilingan. Bularning barchasi mulkdorlar sinfini shakllantirish va uning barqaror rivojlanishining huquqiy poydevorini yaratdi.

Shu bilan bir vaqtida "O'zbekiston–2030" strategiyasi<sup>[2]</sup> xususiy mulkchilikning va mulkdorlar sinfini shakllantirishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishni talab etadi. Ayrim zarur qonunlar, masalan, aholining qimmatli qog'ozlarga investitsiyasini majburiy sug'ortalash, bankdan tashqari moliya institutlari faoliyati, xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro majburiyatlarini javobgarligi mexanizmi to'g'risida qonunlar qabul qilinmagan. Qonunlar bajarilishiga real mexanizmning samarali ishlashi hamda qonunchilikning ayrim me'yorlarining noaniqligi, sezilarli muammolarini keltirib chiqaradi, bu mulkdorlarning o'z huquqlarini himoyalash imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bunga ko'pgina misollar keltirish mumkin.

Tahlillarga qaraganda mamlakatimizda tarixan juda qisqa vaqtida jamiyatimiz uchun mutlaqo yangi mulkchilik va iqtisodiy munosabatlarga asos solgan qonunlar majmuasi yaratildi. Aytish mumkinki, butun Yangi O'zbekiston strategiyasi modeli negizida tashkil etiluvchi maqsad va tamoyil asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida o'z mulkidan oqilona foydalanishga va bozor munosabatlarini rivojlantirishga hamda huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurishga qodir bo'lgan mulkdorlarning keng qatlami shakllanmoqda.

Shu bilan bir vaqtida davlatimizda xususiy mulk ustuvor bo'lgan ko'p ukladli iqtisodiyot shakllanib, u barqaror inklyuziv rivojlanish davriga o'tdi. O'tkazilgan so'rovlarga ko'ra ayni paytda mamlakatimiz aholisining 50 foizdan oshig'i o'zini o'rta mulkdorlar toifasiga mansub ekanligini tasdiqlagan.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi 80 foiz korxonalar nodavlat korxonalar (fermer xo'jaliklarisiz) toifasiga kiradi. Ular 83 foiz YAIM hajmini ishlab chiqarishmoqda. Bu ko'rsatkich 1992-yilda 5 foizga teng bo'lgan. Ushbu raqamlar O'zbekistonni ko'plab rivojlangan davlatlar darajasiga tenglashganidan dalolat berib turibdi.

Mamlakatimizda ko'p ukladli iqtisodiyotida kichik, o'rta va xususiy tadbirkorlik ustuvorligi ta'minlangan. Bunga ushbu sohalar rivojlanishini davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlash, xususiy mulk egalarining tinimsiz harakatlari hamda manfaatdorligi tufayli erishilmoxda. 2023-yilda aholi jon boshiga real daromadi 15979,3 ming so'mga teng bo'lgan.



Mamlakatda ish bilan band aholining 81 foizi yoki 11,2 mln. kishi nodavlat korxonalarida ishlaydi. Faqat kichik korxona va mikrofirma egalari ixtiyoroda 188,4 trln. so'mga teng ishlab chiqarish vositalari bor. Ularda 1,4 mln. kishi ish bilan band. Ushbu toifadagi korxonalarda 143,9 trillion so'mdan oshiq sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan. Bu ko'rsatkich 2000-yilga nisbatan 12,5 martaga ko'pdir.

O'zbekistonda 2023-yilda 523,5 ming kichik korxonalar va mikrofirmalar, 109,6 mingdan ortiq fermer va 5,1 mln. dehqon va tomorqa xo'jaliklari, nodavlat mulkining 18,4 foizi xususiy korxonalar hisoblanadi. Xususiylashtirilgan davlat korxonalarining aktivlari (aksiyalar, pay ulushlari va boshqa qimmatli qog'ozlar.), avtoransport, qishloq xo'jaligi tizimida xususiy mulkga berilgan bog'lar, uzumzorlar hamda chorva fermalarining egalari daromad keltiruvchi mulklarini mulkdorlari hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xususiy tadbirkorlar uchun katta miqdorda ishlab chiqarish resurslari ajratilmoqda. Birgina fermerlar ixtiyoriga qariyb 6 mln. aholi dehqon xo'jaliklari 625 ming gektardan oshiq qishloq xo'jalik yerlari berilgan. Shu bilan birga, kichik biznes vakillari 2022-yilda asosiy kapitalga qariyb 44,7 trln. so'm investitsiyalar kiritgan. Bu iqtisodiyotga kiritilgan hamma investitsiyalarning 35 foizdan oshig'ini tashkil etadi. Shu davrda kichik korxona va mikrofirmalar qariyb 52 foiz o'z mablag'alarini hamda 31 foiz bank kreditlarini asosiy kapitalga investitsiya qilib kiritgan. Bu o'tgan 2015-yilga solishtirganda mos ravishda 8 va 1,5 foizga ko'pdir.

Fuqarolarga tegishli ko'chmas mulkdan foydalanish imkoniyatlaridan sezilarli cheklanishlar mavjud. Ko'chmas mulk bitimlari uchun katta soliq va mulk uchun kichik soliq to'lanishi mulkdorni unga tegishli bo'lgan ko'chmas mulkdan yanada samarali foydalanishga undamaydi. Ko'chmas mulk oldi-sotdisi bo'yicha bitimlarni rasmiylashtirishdagi qiyinchiliklar ham shunday natijaga olib keladi. Oqibatda ushbu bozorlar juda sekin rivojlanmoqda.

Xususiy mulkchilikni rivojlantirishda qimmatli qog'ozlar bozorining roli juda ham muhim. Aksiyalashtirish aholining keng ommasini mulkka egalik qilishga jalb etishning samarali mexanizmidir. Biroq aksiyalashtirish jarayoni hozircha real mulkdorlarning keng namoyon bo'lishi sust. Aholi omonatlarini qimmatli qog'ozlar bozoriga jalb etish jarayoni ham juda sust. Aksiyadorlar tomonidan rasman saylab qo'yiladigan aksiyadorlik jamiyatlarini rahbarlari ko'p hollarda, ya'ni dividentlar to'lashda, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirot etish huquqlarini amalga oshirilishida, aksiyadorlik jamiyati faoliyati to'g'risidagi axborotlarni olish huquqlarining amalga oshirilishida aksiyadorlar manfaatlari ochiq himoya qilinishi yetarli darajada emas. Investorlarga ko'rsatiladigan zarur xizmatlarning narxi yuqoriligidagi qolmoqda.

Yangi O'zbekiston strategiyasida<sup>[1]</sup> belgilangan maqsadlar qatorida xususiy mulkchilikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri xususiy tadbirkorlik hamda kichik va o'rta biznesni ustuvor rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda ko'p ishlar qilinmoqda, lekin shu bilan birga hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjud. Ro'yxatga olingan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hammasi ham amalda faoliyat ko'rsatayotgani va mahsulot chiqarayotgani yo'q. Faqat 2022-yilda ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik korxonalarning 32,4 mingtasi yoki 5,8% faoliyat yuritmagan. Bu ko'rsatkich 2020-yilda 25,8 ming yoki 6,8 foiz bo'lgan. Barpo etilgan korxonalarning ko'pchiligi qisqa vaqt ichida tugatilmoqda. Tadbirkorlik tuzilmalarining hududiy taqsimlanishi notengligicha qolmoqda, ko'rilgan choralarga qaramasdan ularning katta qismi hali ham Toshkent shahri, viloyatlarning yirik shaharlariga mo'ljallangan. Tadbirkorlik subyektlarining sohaviy tuzilishi ham takomillashtirilishi zarur. Chunki ularning katta qismi savdo va umumiy ovqatlanishga mo'ljallangan.

Tadbirkorlarni o'qitish, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish borasida turli tashkilotlar tomonidan muhim ishlar olib borilganligiga qaramasdan ko'pgina kichik korxonalar rahbarlarining bilim saviyasi pastligicha qolmoqda, bu korxonaning tugatilishiga olib keladi.

Ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun litsenziya olish jarayoni qiyin va katta kuchlarni, ko'pincha esa mablag'larning sarflanishi bilan bog'liqdir. Xususiy tadbirkorlarning ikki marta soliq to'lash tizimi amalda davom etmoqda, biriinchi marta tadbirkor firma uchun soliq to'laydi, keyin esa yagona ega sifatida daromad solig'i ham to'lashi kerak.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyoti yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar natijasida fuqarolarni xususiy mulkka egalik qilish huquqidan chetlatish jarayoni to'xtatildi; aholi ichidan daromad keltiruvchi mulkka ega bo'lgan mulkdorlar qatlami shakllandi; ular o'z mulkidan davlat, jamiyat va o'z manfaatlari yo'lida samarali foydalanib, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shmaqda hamda iqtisodiyotning real sektorida yangi korxonalar ish joylarini yaratishda salmoqli investitsiyalar kiritmoqda. Ushbu harakatlar davlatimiz rahbarining kichik biznes negizida yirik korxona va kompaniyalar yuzaga kelishi haqidagi uzoqni ko'zlovchi g'oyasining amalda o'z tasdig'ini topayotganining isboti hisoblanadi. Shu tariqa rivojlanib borayotgan davlatimiz qudratli va aholisining hayoti farovon bo'ladi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

- O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi, "Korxonalar to'g'risida"gi qonunlarni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi bilan muvofiqlashtirilgan holda yangi tahrirda qabul qilish.
- Aholining xususiy mulk egalari sifatida huquq va majburiyatlarini izohlovchi aholi huquqiy ta'limi tizimini kengaytirish hamda ushbu huquq va majburiyatlarni amalga oshirish mexanimini yaratish.
- Soliq qonuniga ko'chmas mulk oldi-sotdisi bitimlariga solinadigan soliq darajasining pasaytirilishiin nazarda tutgan holda o'zgartirishlar kiritish.
- O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunda ko'zda tutilgan aksiyadolarning hisoblab yozilgan va e'lon qilingan dividendlarni olish huquqlarini amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish.
- Qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori rivojlanishini – qimmatli qog'ozlarning aylanuvchanligi va likvidlashni ta'minlash.
- Tadbirkorlarga ko'rsatiladigan xizmatlarda transatsiya xarajatlarini pasaytirish uchun ularga marketing, yuridik va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchilarning raqobatchi tuzilmalari barpo etilishini rag'batlantirish zarur.
- Qishloq joylarda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarini rivojlantirishni rag'batlantirish tizimini yaratish. Qishloq tadbirkorligini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi va ularga xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalarning monopolistik huquqlariga barham berish, ushbu raqobatchi tadbirkorlarning yuzaga kelishini ta'minlash.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi o'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11-sentyabr 2023-yildagi "O'zbekiston–2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni.
3. Абдурахманов К.Х. Тенденции развития человеческого капитала Узбекистана // Вестник российского экономического университета им. Г.В.Плеханова. –М., 2013. –№8. –С. 80-84.
4. Ахмедов Т.М., Махкамова Ш.Ю., Бобомуратов О. Репродуктивное здоровье населения Узбекистана // Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishning dolzarb muammolari: Материалы респ. науч.-Практ. конф. –Ташкент, 2016. –С. 16-20.
5. Аликариев Н.С., Агзамходжаев И.Х., Махкамова Ш.Ю. Формирование региональных особенностей среднего класса// Современная социально-экономическая география: достижения, проблемы и перспективы: Материалы респ. науч.-Практ. конф. –Ташкент, 2013. –С. 25-26.
6. Махкамова Ш.Ю. Формирование среднего класса в Узбекистане. –Т.: "Fan va texnologiya", 2017, 108 стр.
7. Махкамова Ш.Ю. Социально-экономические аспекты формирования среднего класса // Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarishning dolzarb muammolari: Материалы респ. Науч.-практ. Конф. –Ташкент, 2016. –С. 34-36.
8. Средний класс в КНР составляет 23% населения // Женъминъ жибао. 2010 г. 2-февраля.
9. O'zbekistonda kichik tadbirkorlik. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. Statistik to'plam. 2019–2022-yil. 191-bet.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

